
DEPUTATLAR FUQAROLAR BILAN UCHRASHISHDI

Bugun Rishton tumani kengashi kotibiyat mudiri M.Mamajonov boshchiligida Rishton tuman deputatlari, Rishton tumani Markaz MFYda joylashgan ko'p kavatli uylarda yashovchi fuqarolar bilan uchrashib, ularning hozirda qiynab kelayotgan muammolari yuzasidan suhbatlar o'tkazishdi.

Ma'lumot uchun "Markaz" MFYda 17 ta to'rt qavatli uylar qurilgan bo'lib 400 tadan ortiq xonadondan iborat bu yerda asosan yoshlar istiqomat qilishadi. Aytganicha, "Yangi O'zbekiston" mavzesida "Yoshlar guzari" va "Markaz" MFY idorasi ham joylashgan. Bundan tashqari, 150 o'rinli bolalar bog'chasi ham ushbu mavzeda joylashgan. Zamonaviy va shinam uyga ko'chib o'tgan fuqarolar bugungi dorulomon kunlarga shukrona keltirishmoqda. Rishton tumanida keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari davom etmoqda.

2022-08-11 17:12:29